



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 25-aprel

VI-100-53-7-96-K/24

Kattaqo'rg'on tumani

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi PQ-216-sonli "2022-2026-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish to'g'risida"gi qarorini tumandagi ijrosi yuzasidan tuman tibbiyot birlashmasi bosh shifokori V.Xudoyqulovning hisoboti haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi "2022-2026-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish to'g'risida"gi PQ-216-sonli qarori ijrosini ta'minlash bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish, tuman tibbiyot birlashmasida ushbu yo'nalishda olib borilayotgani ishlar yuzasidan tuman Tibbiyot birlashmasi V.Xudoyqulovning hisobotini muhokama etib va yuqorida bayon etilganlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddasiga muvofiq VI chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 100-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig'i V.Xudoyqulovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o'rinbosari (D.Ismailov), tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i (V.Xudoyqulov)ga:

-tumanda tibbiyot sohasida mavjud muammo va kamchiliklar hamda ularning aniq yechimi yuzasidan aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etish;

-tumanda reja asosida sog'lom turmush tarzi, kasalliklar profilaktikasi kabi tadbirlarni ko'paytirish; birlamchi tibbiy muassasalarga va dispanser nazoratida turuvchi bemorlarga dori vositalarini o'z vaqtida yetkazib berish;

-tibbiy brigadalar va ularga birlashtirilgan shifokor va hamshiralarning sifatli ishlashlarini nazorat qilish;

-tuman hududi bo'ylab aholining sog'lom turmush tarzini yanada yaxshilash va aholi orasida tibbiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlarning doimiy olib borilishini ta'minlash;

-birlamchi tibbiy-sanitar yordam muassasalarida homiladorlarga tibbiy yordam ko'rsatish, nazoratga olingan homiladorni o'z vaqtida birlamchi skrining tekshiruvini o'tkazish bilan tug'ma nuqson tug'ilish oldini olish;

-bolalar va o'smirlarga samarali akusher ginekologik xizmatini tashkillashtirish, hamda ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yanada oshirish; sut bezi onkoskriningini erta aniqlash maqsadida kasallikga moyilligi bor xotin-qizlarni mammografiya tekshiruvidan o'tkazish;

-aholiga malakali birlamchi, birinchi navbatda kasalliklarni profilaktika qilish masalalarida tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish, tug'ruq yoshidagi ayollar, o'smir qizlar, homilador ayollar, bolalar, shuningdek, surunkali kasalliklarga chalingan bemorlar o'rtasida doimiy patronaj ishlarini amalga oshirish choralarini ko'rish vazifalari yuklatilsin.

3. Ushbu qarorning ijrosi nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova), tuman hokimining o'rinbosari D.Ismailov zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi



TESHAYEV MUXIDDIN
XOLIKULOVICH